e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 2181-2926 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/aqg5eb70

ARAB NOTIQLIGIDAN XITOBA JANRIGACHA: ILK O‘RTA ASRLAR ARAB NASRINING SHAKLLANISHI

Djurayeva Feruza Shukurovna
Oriental universiteti, dotsent (PhD).
e-mail: fairuz.djuraeva@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0007-9603-1643

Annotatsiya.
Mazkur maqolada ilk o‘rta asrlar arab xitobasining adabiy janr sifatidagi mohiyati va uning asliyligi masalasi tadqiq etiladi. Xitobaning adabiy janr emasligi haqidagi yevropacha qarashlar, shuningdek, xitobalarda yunon-rim ritorikasi yoki ellinistik madaniyat ta’siri mavjudligi to‘g‘risidagi farazlar tanqidiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida xitoba xorijiy ta’sirlar ostida emas, balki sof arab badiiy tafakkurining mahsuli sifatida shakllanganligi asoslanadi.
Kalit so‘zlar: xitoba, notiqlik, janr, asliylik, johiliyat davri, xatib, ellinistik ta’sir, Aristotel ritorikasi, arab adabiyoti, nasr janrlari.

ОТ АРАБСКОГО ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА К ЖАНРУ ХУТБЫ: ФОРМИРОВАНИЕ АРАБСКОЙ ПРОЗЫ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

Джураева Феруза Шукуровна
Университет Oriental, доцент (PhD).

Аннотация.
В статье исследуются сущность арабской хитабы раннего Средневековья как литературного жанра и проблема её самобытности. Критически анализируются европейские взгляды, согласно которым хитаба не является литературным жанром, а также предположения о наличии в арабской хитабе влияния греко-римской риторики или эллинистической культуры. В результате исследования обосновывается положение о том, что хитаба сформировалась не под воздействием внешних культурных влияний, а как продукт самобытного арабского художественного мышления.
Ключевые слова: хитаба, ораторское искусство, жанр, самобытность, эпоха джахилии, хатиб, эллинистическое влияние, риторика Аристотеля, арабская литература, прозаические жанры.

FROM ARABIC ORATORY TO THE GENRE OF KHUTBA: THE FORMATION OF EARLY MEDIEVAL ARABIC PROSE

Djurayeva Feruza Shukurovna
Oriental University, Associate Professor (PhD).

Abstract.
This article examines the nature of early medieval Arabic *khitaba* as a literary genre and addresses the issue of its authenticity and indigenous origins. European views that deny *khitaba* the status of a literary genre, as well as hypotheses concerning the influence of Greco-Roman rhetoric or Hellenistic culture on Arabic *khitaba*, are critically analyzed. The study argues that *khitaba* developed not under foreign cultural influence but as a product of indigenous Arabic literary and artistic thought.
Keywords: khitaba, oratory, genre, authenticity, Jahiliyyah period, khatib, Hellenistic influence, Aristotelian rhetoric, Arabic literature, prose genres.

Kirish. Arablar o‘zlarining johiliyat zamonlarida nasriy janrlarga katta e’tibor qaratgani mavjud manbalardan ma’lum. Bu o‘ziga xoslik notiqlar (xatiblar)ning xutbalari, kotiblarning risolalari orqali mashhur bo‘ldi [2; 245-b.].

Dunyo adabiyoti tarixida arablar yuksak so‘z san’atiga mahoratli bo‘lishgani, bunday iqtidor qadim zamonlardayoq mavjud bo‘lgan xitoba — omma oldida ta’sirchan badiiy nutq qila olganliklarida yaqqol namoyon bo‘lishiga oid qarashlar o‘rganilayotgan soha bo‘yicha yozilgan va e’lon qilingan ishlarning qariyb barchasida uchraydi. Shunday ekan, ilk o‘rta asrlarda umuman arab nasri bo‘lmagan degan qarash qanchalik to‘g‘ri? Xitoba — arab notiqligi ko‘zgusi — aslida qanday janr edi, uning adabiy janr ekanligidan shubhalanish nimaga asoslangan? Xitoba arab adabiyotida qanday o‘rin tutadi?

Arab adabiyotining asosiy janrlaridan biri — xutbani o‘rganishga qiziqishning kamligi, ehtimol, o‘rta asrlar arab tanqidchilarida notiqlik san’atiga aniq yondashuv bo‘lmaganidandir.

Balki yevropalik olimlar “xitoba taraqqiy etmaganligi sababli unga jiddiy ahamiyat qaratmagandirlar; balki xitobani adabiyot emas, falsafaga daxldor deb bilgandirlar” [5; 179-b.]; balki yevropalik olimlar o‘z tadqiqotlarida “xitobani balog‘at yoki ritorikaning alohida janri sifatida mavjud bo‘lmagan deb bilgandirlar” [6; 19–38-b.]. Umuman, bu

ISSN 2181-2926 (Online)

kabi qarashlar har qanday izlanuvchini ikkilantirishi tabiiy.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ilk o‘rta asrlar arab xitobasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida Aristotel, I. M. Filshtinskiy, T. Qutbuddin, F. Xallden, A. Nos va K. Lourens, H. Al-Faxuri, T. Husayn, Z. Mubarak, A. Z. Safut hamda H. A. R. Gibbning asarlari alohida o‘rin tutadi va mazkur maqolada ham tayanch manbalar sifatida foydalanildi.

Islomgacha bo‘lgan davrda tug‘ilgan, ilk islom va umaviylar asrida yetakchi nasriy janr maqomini egallagan xitoba haqidagi bunday qarama-qarshi fikrlarning barchasi arablarda xitoba janri o‘tgan yillar mobaynida ko‘p va har tomonlama tadqiq qilinmagani, ehtimol, bevosita arab adabiy tanqidchiligi nigohi bilan chuqur tahlil qilinishiga ehtiyoj borligi bilan izohlanar. Fikrimizcha, dunyoga o‘zining notiqligi va mo‘jizaviy tili bilan mashhur xalqning ayni ikki jihatini o‘zida qamragan xitoba (oddiy kundalik nutqdan san’at darajasiga ko‘tarilgan badiiy nutq) janrini jiddiy o‘rganish zarur va bu badiiyat bilimdonlari uchun birdek qiziq mavzu. Tadqiqot davomida arablarda islomgacha nasr umuman bo‘lmagan; mavjud bo‘lganda ham, yodlash qiyin bo‘lgani bois bizgacha yetib kelmagan; hozirda johiliyat asri nasri deb ko‘rsatilayotgan ko‘plab adabiy asarlar islomdan keyin, yozma holga keltirish paytida roviylar tomonidan o‘ylab topilgan [7; 87-b.], arab xitobalarida yunon va rim madaniyatining ta’siri bor [2; 3; 8] qabilidagi zid fikrlar uchradi. Masalan, Z. Muborak shunday yozadi: “Ko‘plab arab tili va arab adabiyoti tarixi mutaxassislarining e’tiroficha, arablarda nubuvvat asrigacha na siyosiy, na adabiy voqelik mavjud bo‘lgan. Faqat islom arablarni xuddi o‘limdan keyin qayta tiriltirdi va loqaydlikdan uyg‘otdi. Ulamolarning bunday ittifoqi ikki xil asosga tayanadi. Islom tarixini o‘rganuvchi musulmon tarixchilari diniy xususiyatlarni yoqlovchilar bo‘lib, faqat islom arablarni xalq sifatida yaratdi, ularni zulmatdan nurga, yo‘qlikdan borliqqa olib chiqdi, — deydilar. Arab tili va adabiyoti tarixi mutaxassislari islomgacha arablar tomonidan afzal ko‘rilgan xitobalar, sajli parchalar va maqollarning ko‘plab matnlariga shubha bilan qaraydilar. Shunday fikrlovchilardan biri Xalil Mitran bo‘lib, u Muhammad Haykal bilan birga 1928-yilda ko‘rgan johiliyat davri arab adabiy majmuasi (xitobalari) bir nashr (bosma taboq)dan ham oshmasligiga ishora qiladi” [9; 35-b.]. Z. Muborakning e’tiroficha, bunday xato fikrga ergashuvchilar ham ko‘p bo‘lgan. Shundaylardan Toha Husayn va Mse Marseni aytish mumkin. Ularning nazariyasiga ko‘ra, arablar johiliyatda juda sodda ibtidoiy hayot tarziga asosan yashaganlar. Tabiiyki, bunday jo‘n hayotda ularning badiiy nasrga ehtiyoji bo‘lmagan. Negaki, nasr chuqur aql tili hisoblangan. Arablarga she’riyatdagina imkon berilgan. She’riyat (aynan) xayollar va his-tuyg‘ular tilidir” [9; 36-b.].

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ilk o‘rta asrlar xitobalarining yetarli darajada keng ilmiy tadqiq etilmagani yuzasidan arab va boshqa xalqlar adabiyotshunoslari tomonidan turli sabablar ko‘rsatiladi. Biz bu o‘rinda bir necha tarixiy va arab adabiy manbalarida keltirilgan ilk o‘rta asrlarga taalluqli xitoba namunalarining asl matn emasligi haqidagi da’voni rad qilamiz. Negaki, bunday adabiy manbalar turli davrlarda, turli hududlarda turli shaxslar tomonidan yozilgan, yig‘ilgan va bizgacha yetib kelgan. Ehtimol, bunday majmualar mualliflari bir-biridan bexabar holda xitobalarni yig‘gandir, ularning turli roviylardan yozib olingani esa tabiiy. Ammo islomgacha Arabiston yarimorolida mavjud bo‘lganligi inkor etilayotgan xitobalar matni aynan bir xil; ba’zan mazmuni o‘zgarmagan holda shakli biroz o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Bunday bir xillik esa tasodifiy bo‘lishi mumkin emas, shu bois arab xitobalarining aslligi va haqqoniyligiga shubha qilmaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tarixiy tahlil, manbashunoslik (matn tanqidi) hamda mavjud ilmiy adabiyotlarni tanqidiy kuzatish usullaridan foydalanildi. Xususan, turli davr va hududlarga oid xitoba namunalari o‘zaro qiyoslanib, ularning til va mazmun jihatidan bir xilligi matnlarning aslligini aniqlash mezoni sifatida qo‘llanildi; shuningdek, xitobaning adabiy janr sifatidagi maqomini inkor etuvchi yoki unga xorijiy ta’sir izlovchi qarashlar tanqidiy tahlil qilinib, ularning ilmiy asoslanganlik darajasi baholandi.

Muhokama.

Arab xitobalarida Aristotel ritorikasining ta’siri bor degan qarashni shunday tushuntirish mumkin: xatiblar xitoba aytar ekan, aniq maqsadni ko‘zlaydi. Ommaga mo‘ljallangan, unga ta’sir etish ko‘zlangan nutq qaysi zamonda, qanday tinglovchiga aytilishidan qat’i nazar, xitobaga berilgandek ta’riflanishi tabiiy. Qolaversa, ayni bir narsani birdan ortiq xalq bir-biridan bexabar holda kashf qilishi yoki muayyan tabiiy qonuniyat birdan ortiq jamiyatda ma’lum vaqt davomida qayta-qayta ishga tushishi va buni avval bilgan xalq birinchi bo‘lib e’lon qilishi, tabiiyki, boshqa xalq vakillarining bunday ijodga qodir emasligini anglatmaydi. Bizningcha, ilk o‘rta asrlar arab xitobalari na yunon, na rim ritorikasi yoki boshqa xorijiy ta’sirlar ostida paydo bo‘lgan, balki sof arab badiiy taxayyulining natijasidir. Qolaversa, tarixiy-siyosiy vaziyat, o‘sha davr arab xalqlarining ijtimoiy ahvoli ham bunga imkon bermasdi. Zero, shafqatsiz tabiiy sharoitlarda yashagan badaviy arablar Aristotel ritorikasi yoxud shunga o‘xshash asarlarni ko‘rishi, eshitishi, uni yodlab, shunday uslubni saqlagan holda o‘z qabiladoshlari yoki qavmdoshlariga aytib berishi mumkin emas edi.

Arab xitobalarining paydo bo‘lishi va shakllanishida ellinistik madaniyatning ta’siri borligi xususidagi qarashlarga ham qo‘shilmaymiz. Bizning bunga munosabatimiz T. Qutbuddinning qarashlari bilan bir xil: “Xutba o‘zining asl madaniyatiga shu qadar tomir otganki, arab xutbasida juda kam miqdorda xorijiy madaniyat izlari bor. Islom kelishidan avval ham, keyin ham xutbaning rivojlanishiga yunonlar, forslar, hindlar va vavilonliklarning ritorik an’analari katta ta’sir o‘tkazmagan” [5; 189-b.].

Arablarning islomdan avvalgi va keyingi turmushida ham xitobaning nufuzi baland bo‘lib, uning muayyan siyosiy, ijtimoiy va diniy vazifalari bor edi. Xitoba alohida nutqiy janr sifatida jangchilarni jangga ruhlantirar, fuqarolik va jinoiy ishlarda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qilar, o‘lim yaqinlashuvidan ogohlantirar va taqvo bilan hayot kechirishning muhimligini uqtirar, islom deb atalgan yangi dinga da’vat etar va hatto bu dinning e’tiqodiy an’analarida qatnashar edi.

Xitobalarning qanday shakl va mazmunda aytilgani haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritish maqsadida quyida johiliyat, ilk islom va ummaviylar asri xitobalaridan namunalar keltiramiz.

ISSN 2181-2926 (Online)

Johiliyat davrida yashab o‘tgan Mursad al Xayrning o‘z qavmiga aytgan xitobasi:

لا تُنشطوا عقل الشواردِ، و لاتلقحوا العوُن القواعدَ، و لا تُورثوا نيرانَ الأحقادِ، ففيها المَتلَفةُ المستأصلةُ و الجاعِحةُ و الأليلةُ، و عفوا بالحلْم، أبلاد الكَلْم، و أنيبوا إلى السبيل الأرشدِ و المنهج الأقصد، فإن الحربَ تقبلوا بِزِبْرِج الغرور، و تُدبر بالويلِ و الثُّبورِ.

— Eski va yangi iplarni bog‘lamanglar, bevalarini yukli qilmanglar, (bu ish) qoidalarga aylanmasin. (Bu ibora aslida tuya haqida aytilgan va masal bo‘lib ketgan, ya’ni: biya o‘z uyuridan ajrab ketdi va boshqa uyurning kuchli ayg‘ir tuyasidan yukli bo‘ldi, arablarda besabab urush boshlansa, ana shunday semantik frazeologizm qo‘llanilgan.) Yashirin adovat olovlarini alangalatmanglar, ularda (urushlar)da ildizi bilan sug‘urib oluvchi talafot-ofatlar, va eng yaqin kishilardan judoliklar bordir. Aql bilan jarohat yaralarini bitiringlar. To‘g‘ri yo‘lga tushmoq uchun shafqat so‘rab iltijo qilinglar, maqsadga eltuvchi yo‘l so‘ranglar. Darhaqiqat, urush takabburlik zeb ziynatlariga yuzlanadi, balo va halokatni olib keladi [10; 1-jild, 12-b.].

Ilk islom davrida sodir bo‘lgan voqealar munosabati bilan aytilgan, Abu Sufyon bin Harbning xitobasi:

إنكم يا معشر المسلمين أصبحتم فى دار العجم، منقطعين عن الأهل، نائين عن الأمير المؤمنين و أمداد المسلمين، و قد و الله، أصبحتم بإزاء عدو كثير عددهم، شديد عليكم حنقهم، و قد ترتموهم فى أنفسهم و نسائهم وأولادهم و أموالهم و بلادهم، فلا و الله لا ينجيكم منهم اليوم و تبلغون رضوان الله إلا بصدق اللقاء، و الصبر فى مواطن المكروه، فامتنعوا بسيوفكم، و تقربوا بها إلى خالقكم، و لتكن هى الحصون التى تلجئون إليها، و بها تمنعون!

-Ey musulmonlar jamoasi, siz bugun o‘z ahllaringizdan uzilib, mo‘minlar amiri va musulmonlarning madadlaridan uzoqda, ajam diyoriga kelib qoldingiz. Va Allohga qasamki, son jihatdan sizdan ko‘p, sizdan qattiq g‘azablangan dushman qarshisida turibsiz. Sizlar ularning, ayollari farzandlari va boyliklari (yonlarida hollarida) va (sizlar ularning) shaharlarida bo‘lib turgan holda ularning qarshisidasiz. Allohga qasamki, bugun faqat Alloh bilan ko‘rishishga bo‘lgan ishonchingiz orqali uning roziligiga yetishursizlar. Va yovuzlik vatanida sabrdan boshqa narsa sizlarni ulardan qutqara olmas. Qilichlaringiz bilan qarshilik ko‘rsatinglar va shu bilan sizni Yaratganga yaqinlashinglar, toki u sizlar uchun panoh bo‘lguvchi va u bilan qarshilik ko‘rsata olishingiz mumkin bo‘lgan mustahkam qo‘rg‘on bo‘lsin! [10; 1-jild, 205-b.]

Abdulloh ibn Abbosning ikkinchi roshidun xalifa Umar ibn Xattobga aytgan xitobasidan parcha:

رحم الله أبا حفص عمر، كان والله: حليف الإسلام، مأوى الأيتام، ومنتهى الإحسان، ومحل الإيمان، وكهف الضعفاء، معقِل الحنفاء، قام بحق الله عز وجل صابراً محتسباً حتى أوضح الدين، وفتح البلاد، و أمّن العباد، فأعقب الله على من ينقصه اللعنة إلى يوم الدين.

Alloh Abu Hafs Umarni rahmatiga olsin. U, Allohga qasamki, islomning ahdi, yordamchisi, yetimlarning panohi, yaxshilikni oxiriga yetkazuvchi, iymon maskani, zaiflar tog‘i (homiysi), haniflar qo‘rg‘oni edi. Alloh azza va jallaning haqlariga sabr bilan itoat qiluvchi edi, Alloh roziligi uchun dinni sharhladi, shaharlarni fath etdi, qullarini Unga iymon keltirtirdi. Alloh undan gap topib yomonlaganlarni qiyomat kuni la’natiga olsin [10; 2-jild, 91-b.].

Natijalar.

Yuqorida keltirilgan uch davr xitobalarini qiyoslash asnosida ularda davr va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar bilan bir qatorda, umumiy xususiyatlar ham mavjudligi seziladi. Avvalo, uchala namunada ham tinglovchiga bevosita murojaat qilish, uni muayyan fikrga ishontirish yoki biror harakatga undash, nutqni ta’sirchan va esda qolarli tarzda ifodalashga intilish motivlari ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, qisqa va mazmundor jumlalar, qasamlar, so‘z va iboralarning takrori, uyg‘un tuzilgan birikmalar hamda obrazli ifodalar uchala xitobaga ham xosdir.

Johiliyat davri xitobasida asosiy e’tibor adovat va urushning oqibatlarini ko‘rsatish, kishilarni o‘zaro kelishuv va halimlikka chaqirishga qaratilgan. Nutqda urush keltirib chiqaradigan kulfatlar birma-bir sanab o‘tiladi, urush va uning musibatlariga aql, adolat kabi insoniy qadriyatlar qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu xitobada nasihat va ogohlantirish ruhi kuchli.

Ilk islom davri xitobasida esa diniy e’tiqod, jasorat va jamoaviy birdamlik masalalari asosiy o‘rinni egallaydi. Xitoba aytilgan vaziyatdagi tinglovchilar — jangchilarga murojaat qilinadi, ular dushman qarshisida mardona turishga, qo‘rquvga yengilmaslikka, sabrli va matonatli bo‘lishga chaqiriladi. Allohga qasam ichish, buyruq va undash shakllaridan foydalanish nutqning ta’sirini yanada kuchaytiradi. Bu xitoba nafaqat kishilarni harakatga chorlovchi nutq, balki diniy qarash va e’tiqodni mustahkamlovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ummaviylar davri xitobasida esa boshqa ikki namunadan farqli ravishda muayyan shaxsni ulug‘lash, uning fazilatlarini sanab o‘tish va xalq xotirasidagi o‘rnini ta’kidlash ustunlik qiladi. Abdulloh ibn Abbos Umar ibn Xattob haqida aytgan ushbu so‘zlarida birin-ketin keltirilgan sifatlar, takrorlar va mazmunan uyg‘un iboralar orqali marhum shaxsning yuksak fazilatlari ochib beriladi. Bu xitobada madh va ta’ziya ruhi kuchli seziladi.

Xulosa.

Mazkur uch davr xitobalarida umumiy asosiy belgi — tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, uning hissiyoti va tafakkuriga murojaat qilish orqali muayyan maqsadga erishishdir. Biroq xitobalarning mavzusi va mazmuni davr talabiga ko‘ra o‘zgarib borgan: johiliyat davrida urush, adovat va yarashuv; ilk islom davrida din, jasorat va jamoa manfaati; Ummaviylar davrida esa tarixiy shaxs, uning fazilatlari va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar asosiy o‘ringa chiqqan. Bu esa arab notiqlik san’atida xitobaning mazmunan boyib, turli maqsadlarga xizmat qiluvchi mustaqil janr sifatida takomillashib borganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda ilk xitobalarning keyingi davrlar adabiyoti, xususan, nasr rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatganini ham inkor etib bo‘lmaydi: “Bir asrdan oshiqroq vaqt davomida xitoba o‘zining ma’naviy va dunyoviy ta’siri bilan arab adabiyotining yuksak nasriy janri sifatida Qur’on va uning mo‘jizaviy nufuzi bilan yonma-yon holda arab adabiyotida yetakchilik qildi” [4; 33-b.].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko‘rib chiqilgan dalillar — xitobaning jamiyatda bajargan siyosiy, ijtimoiy va diniy vazifalari, turli davr va hududlarga oid manbalarda xitoba matnlarining til va mazmun jihatidan bir xilligi, shuningdek, uning tarixiy-ijtimoiy sharoitlar nuqtayi nazaridan xorijiy ritorik an’analar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin emasligi — xitobani mustaqil adabiy janr sifatida e’tirof etish va uning asliyligiga shubha qilmaslik uchun yetarli asos beradi. Shu tariqa, ilk o‘rta asrlar arab xitobasi na yunon-rim ritorikasi, na ellinistik madaniyat ta’sirining mahsuli, balki

ISSN 2181-2926 (Online)

sof arab badiiy tafakkuri va notiqlik an'anasining tabiiy davomi sifatida shakllangan mustaqil nasr janri sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Риторика. Поэтика / пер. с древнегреч. О. П. Цыбенко. – Москва: Лабиринт, 2000. – 224 с.
2. Фильштинский И. М. История арабской литературы. V – начало X века. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1985. – 529 с.
3. Аль-Фахури Х. История арабской литературы: в 2 т. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1959–1961. – Т. 1. – 368 с.; Т. 2. – 483 с.
4. Gibb H. A. R. Arabic Literature: An Introduction. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 1963.
5. Qutbuddin T. Khutba: The Evolution of Early Arabic Oration // Classical Arabic Humanities in Their Own Terms: Festschrift for Wolfhart Heinrichs / Ed. by B. Gruendler, M. Cooperson. – Brill, 2008.
6. Halldén P. What Is Arab Islamic Rhetoric? Rethinking the History of Muslim Oratory Art and Homiletics // International Journal of Middle East Studies. – 2005. – P. 19–38.
7. Noth A., Conrad L. The Early Arabic Historical Tradition / Trans. by M. Bonner. – Princeton, 1994.
8. حسين، طه. في الأدب الجاهلي. – مصر: دار المعارف، 1947.
9. مبارك، زكي. النثر في الفني القرن الرابع. – القاهرة: دار الكتب المصرية، 1934.
10. صفوت، أحمد زكي. جمهرة خطب العرب في العصور العربية الزاهرة. – القاهرة: المكتبة العلمية، 1933. – ج. 1–2.